

## O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI, MUAMMO VA YECHIMLARI

*Quziboyev Hokimjon Muzaffarjon o'g'li.*

*e-mail: [quziboyevhokimjon@gmail.com](mailto:quziboyevhokimjon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Yashil iqtisodiyot – bu ijtimoiy va iqtisodiy tizimni parkezlashga, ekologik muammolarni hal qilishga, va iste'mol qilishni mustahkamlashtirishga asoslangan iqtisodiyot modeli. Bu modelda ekologik muvozanat, mamlakatning tub moliya resurslarini saqlab qolish, yashil energiya usullari va sifatli iste'molchilar ehtiyojlari ustida bo'lgan ekologik tatbiqlar keng qamrovli o'rin tutadi. Yashil iqtisodiyot shuningdek, tashqi ta'sirli yo'l ko'rsatuvlari, ommaviy so'ngi qarorlari, va iste'molchilarda o'zgarish yuzaga kelgan muammolarga ilmiy nazariya asosida yondashadi. Bu konsepsiyani o'rganish hamda boshqalar bilan ulashish yuqori texnologiyalardan foydalanish, atrof-muhitni saqlash va biznesning iqtisodiy taraqqiyotda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun nimadir qilishdagi rolni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolaning umumiy maqsadi barqaror texnologik o'zgarishlarni amalga oshirishda duch keladigan va jamiyatdagi turli darajadagi siyosatchilar va mutaxassislar tomonidan to'g'ri tushunilishi kerak bo'lgan bir qator muammolarni muhokama qilishdir.

**Kalit so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, yashil makon. Inklyuziv iqtisodiyot energiya samaradorligi, yashillashtirish.

**Аннотация:** Зеленая экономика – это экономическая модель, основанная на интеграции социально-экономической системы, решении экологических проблем и усилении потребления. В этой модели экологическое равновесие, сохранение основных финансовых ресурсов страны, методы зеленой энергетики и экологические приложения для удовлетворения качественных потребностей потребителей занимают важное место. Зеленая экономика также рассматривает проблемы внешних эффектов, принятия государственных решений и изменения потребителей на основе научной теории. Изучение этой концепции и обмен ею с другими включает в себя использование высоких технологий, сохранение окружающей среды и роль бизнеса в переходе к «зеленой» экономике в экономическом развитии. Общая цель этой статьи — обсудить ряд проблем, с которыми сталкиваются при осуществлении устойчивых технологических изменений и которые необходимо правильно понять политикам и экспертам на разных уровнях общества.

**Ключевые слова:** Зеленая экономика, возобновляемые источники энергии, зеленые пространства. Инклюзивная экономика, энергоэффективность, экологизация.

**Abstract:** Green economy is an economic model based on the integration of the social and economic system, solving environmental problems, and strengthening consumption. In this model, ecological balance, preservation of the country's basic financial resources, green energy methods and environmental applications on quality consumer needs have a comprehensive place. Green economics also addresses the problems of externalities, public decision-making, and consumer change based on scientific theory. Learning about this concept and sharing it with others includes the use of high technology, the preservation of the environment and the role of business in doing something about the transition to a green economy in economic development. The general purpose of this article is to discuss a number of challenges that are faced in the implementation of sustainable technological change and that need to be properly understood by policy makers and experts at different levels in society.

**Key words:** Green economy, renewable energy, green space. Inclusive economy, energy efficiency, greening.

Bugun jahon ham jamiyati iqlim o'zgarishlarini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri sifatida tan olmoqda. Mutaxassislar fikricha, iqlim o'zgarishlarining oldini olish hamda unga moslashish yo'lidagi muhim qadamlardan biri iqtisodiyotni “yashillashtirish”dir. Bu borada mamlakatimizda ham amaliy ishlar boshlab yuborilgan.

Xususan, sohaga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida”gi, “Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida”gi qonunlar, 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi, 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda “2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida”gi qarori mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash, “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejash yo'lidagi muhim tarixiy hujjat, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qaror bilan tasdiqlangan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturida bir qator muhim strategik maqsadlarga erishish ko'zda tutilgan. Xususan, Parij kelishuvi majburiyatlariga sodiq

qolgan holda issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish mas'uliyati yuklatilmoqda.

Ushbu maqsadlar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt.ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga etkazish vazifalari belgilanmoqda.

Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foiz kamaytirish maqsadlari belgilanmoqda[1].

Ammo yashil iqtisodiyotga o'tish uchun bularning o'zi kamlik qiladi. Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta'riflagan: qayta tiklanadigan energiya; yashil binolar; barqaror transport; suvni boshqarish; chiqindilarni qayta ishlash; yerni obodonlashtirish [2].

O'zbekiston resurslarni boshqarishni yaxshilashiga to'g'ri keladi. Mamlakatning resurs samaradorligi Yevropa Ittifoqi va boshqa yuqori o'rta daromadli mamlakatlarnikidan ancha past. O'zbekistonda suvdan foydalanish, ayniqsa, samarasiz, mamlakatning yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan qariyb uch baravar va qo'shni Qozog'istonnikidan ikki baravar yuqori [3].

Ushbu muammolarni ijobiy bartaraf etish uchun Karl Burkartning oltita asosiy sektoriga tayanib quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Birinchi qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish borasida qurilayotgan ko'p qavatli binolarni to'liq quyosh panellari bilan ta'minlash, sanoat korxonalarini zavodlarni energetika tizimini tubdan isloh qilish ularni energiya tejovchi yangi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash.

Ikkinchida qurilish sohasida ajratilayotgan yer maydonlarida eko bog'lar tashkil etishni yanada kuchaytirish, har bir bino yonida yashil maydon hosil qilish.

Uchinchi shahar markazlarida jamoat transportlarini elektrobuslar bilan ta'minlash elektromobillar sotuvini kuchaytirish, elektromobillarni qayta zaryadlash uchun maxsus shaxobchalar ochish va ular sonini ko'paytirish.

To'rtinchidan yer usti va yer osti suvlarini nazoratga olish, suvni boshqarishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni to'g'rilash, sug'oriladigan yerlarni tomchilab sug'orish texnologiyasini mahalliy fermer xo'jaliklari, bog'bonlar, va klasterlarga ushbu texnologiyani sotib olishi uchun davlat tomonidan yordam berish.

Beshinchidan atmosferaga chiqayotgan chiqindilarni kamaytirish uchun plastmassa, charm, salafan paketlari va shu kabi chiqindilarni qayta ishlashni kuchaytirish aholi orasida chiqindilarni yoqib yuborish holatlari yuzasidan nazorat o'rnatish.

Oltinchidan yashil makon dasturini ilgari surish, foydalanishga yaroqli bo'sh turgan yerlarni klasterlarga bo'lib berish, bog'dorchilik xo'jaligini tashkil qilish, ko'p yillik mevali daraxtlarni yetishtirish.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib ekologik muammolarni bartaraf etish, atmosferaga chiqayotgan chiqindilarni kamaytirish, yer osti va yer usti suvlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, bo'sh turgan yerlarda yashil makon dasturini ilgari surish, yer va suvdan unumli foydalanish kabi muammolarni bartaraf etish yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://parliament.gov.uz/articles/1263> - Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi ma'lumotlari
2. "What is Green Economy? Here's a Simple Explanation"  
<https://www.sociologygroup.com/green-economy/>
3. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi: muammolar va imkoniyatlar//  
<https://daryo.uz/2023/02/25/ozbekistonning-yashil-iqtisodiyotga-otishi-muammolar-va-imkoniyatlar>.